

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**O'ZBEK SHE'RIYATI KONTEKSTIDA "MUHABBAT"**  
**TUSHUNCHASIGA OID SO'ZLARNING MA'NOVIY KO'RINISHLARI,**  
**MA'NAVIY XUSUSIYATLARI**  
**(RAUF PARFI IJODI MISOLIDA)**

Gulnoza Turdiyeva Sayfullayevna  
O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasи o'qituvchisi (909711191)

**Annotatsiya:** Insonning insonligi, eng avvalo, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligi, pokligi bilan belgilanadi. Maqolada tilshunosligimizning ham o'rganish obyekti masalasiga aylanib borayotgan ma'naviy yuksalishga, ya'ni shaxsning ma'naviy barkamolligini ko'rsatuvchi fazilatlarga har qachongidan ham bugun e'tibor qaratilayotgani, zamonaviy o'zbek she'riyati kontekstida, xususan, Rauf Parfi ijodida "muhabbat" tushunchasiga oid so'zlarning rang-barang ma'noviy ko'rinishlari, leksik-semantik tahlili, milliy-madaniy-ma'naviy xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Abstract:** The humanity of a person is defined primarily by his spiritual and moral maturity and purity. The article focuses on attention being paid, more than ever, to spiritual growth, which is becoming an object of study in our linguistics, that is, to the qualities that show the spiritual perfection of a person. It talks about the various meanings of words related to the concept of "love", lexical-semantic analysis, national-cultural-spiritual characteristics in the context of modern Uzbek poetry, in particular, in the work of Rauf Parfi.

**Kalit so'zlar:** lingvoma'naviy, kontekst, "muhabbat" konsepti, sema, semantik jihat, leksik-semantik tahlil, shaxs ma'naviyati

**Key words:** linguistic and spiritual, context, "love" concept, sema, semantic aspect, lexical-semantic analysis, personal spirituality

Til – ma'naviyatning ifodalovchisi va saqllovchisi, boyituvchisi va uzatuvchisidir".<sup>1</sup> Til shu xususiyatlari bilan millatimizning ma'naviy yuksalayotganligini o'z sathlarida namoyon qilib boradi. Til-kishilarining axloqiy qarashlaridagi o'zgarishlarni va ular haqidagi bilimlarni o'zida jamlab, ilmiy va badiiy ko'rinishlarda aks ettiradi hamda keyingi avlodga uzatish vazifasini bajaradi. Bu vazifani maromiga yetkazib uddalash shu tilga mansub millatning iste'dodli ijodkorlari, olimlari zimmasiga xoh rasmiy, xoh

<sup>1</sup> Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари хақида // "Маърифат" газетаси, 2018 йил, 25- апрель, 33-сон.

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

norasmiy “yuklanadi”. Demak, shaxs ma’naviyati, avvalo, til ifodalari (so‘zlar, iboralar, maqollar, gaplar) da namoyon bo‘lishi sabab, adabiyotshunos, tilshunos-so‘zshunoslarning ijodiy mahsuliga tayanadi. Ijodiy mahsul zamirida esa bevosita milliy xoslangan shaxs ma’naviyati yotadi. Adabiyot til vositasida tilshunoslikka xos barcha imtiyozlar bilan qurollangan holda xalqning dardi-tashvishlarini, quvonchlarini badiiy haqiqatga aylantirish barobarida millat didini yuksaltirishga, shaxsning ma’naviy-madaniy saviyasini kamol toptirishga - xalqchillikning asl tabiatini belgilovchi ustuvor xususiyatlarga xizmat qiladi. Shu orqali o‘zbek so‘z san’ati zakolarining jahon tamadduniga qo‘sghan hissasini, shaxs ma’naviy-intellektual madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin. Ana shu jarayonda R.Parfining mavzusi keng, yuki salmoqdur ijodi o‘zbek badiiy madaniyatining kelgusi rivojlanish yo‘llarini, yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan mazmun-mohiyati bilan ham, adabiy-ma’naviy qarashlari so‘z san’atining buguni va kelajagiga, o‘zbek lingvomadaniyati va ma’naviyatiga daxldorligi bilan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shoirning ijodiy biografiyasiga xos chizgilardan muhimi shuki, o‘zbek she’riyatida mutlaqo o‘ziga xos yo‘nalish yarata oldi. Ijodiy mavzulari nihoyatda serma’no va serko‘lamligini she’rlarining hamda to‘plamlarining sarlavhalaridan ham kuzatish mumkin. Rauf Parfi dastlabki she’rlaridanoq dunyoqarashi, ruhiyati, ma’naviy e’tiqodi shakllangan ijodkor sifatida o‘zligini namoyon qildi. “Karvon qo‘ng‘iroqlari” (1969), “Hasratlari dunyoning ko‘pdir”, “Mudrar yarim kecha...”, “Tong otmoqda”, “Targ‘illanib bormoqda osmon”, “Termulaman olis ufqqa”, “Cheksiz-cheksiz daqiqalardan iboratdir” singari o‘nlab she’rlarida ijtimoiy-ma’naviy yuksalish sari qadamlarni kuzatish mumkin. O‘tgan asrning 70-80-yillarida uning “Aks- sado”, “Tasvir”, “Xotiro”, “Sabr daraxti”, “Bargrezon”, “Ona Turkiston”, “Sukunat”; 90-yillarida “Turkiston ruhi”, “Turon diyori”, “Fano vodiysi”(tugallanmagan) kabi bayozlari chop etildi. Keyingi yillarda “Tavba”, “Meni erk shoiri denglar”, “Adashgan ruh”, “So‘nggi vido” manzumasini yozadi. She’rlarini o‘qib, tahlilga olarkanmiz, asardan asarga (kitoblarining nomlanishida ham!) o‘tgan sari uning mavzu ko‘لامи kengayib, tuyg‘ulari elanib, falsafiy mushohadasi teranlashib borgan.

Ma’lumki, har bir sog‘lom qalbli inson dunyoda muhabbat bilan yashaydi va muhabbatning go‘zal sifatlarini hayoti davomida o‘zida ham shakllantirishga harakat qiladi. “Ayni orzularda, ayni qayg‘ularda, ayni sevinchlarda yashamoq” ni tiriklikning mohiyatidir, deb biladi Rauf Parfi. Insonga, vatanga, tabiatga, Yaratganga haroratli cheksiz mehr-muhabbati, tuyg‘ularidagi nihoyatda

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

samimiylit hamda dardchillik shoirning “ayni orzularda, ayni qayg‘ularda, ayni sevinchlarda yashamoq”qa qarorining ijrosidan dalolat beradi. Shoirning ishq-muhabbat tarannum etilgan ijodida “Muhabbat” semasi doirasida shakllangan so‘zlarning lingvoma’naviy xususiyatlariga, ulardan qay darajada foydalanganiga nazar soldik.

Ko‘rinadiki, shoir ijodida dastavval insonga, aniqrog‘i qarama qarshi jins vakillariga nisbatan ishq-muhabbat yetakchi mavzulardan bo‘lib chiqadi, chunki inson hayoti turli davrlardan tashkil topadi va ayni davrdagi kechinmalar, tuyg‘ular, anglamlar qog‘ozga to‘kiladi. “Xato qildim, sevgilim” she‘rini yozganida shoir kimgadir qalbdan berilish hissiga oshno yoshda edi. She‘rning har bandida “Xato qildim, sevgilim, Xato qildim bilmasdan” so‘zlarining takrorlanib kelishi qahramon iztiroblari miqyosining ortib borganligini bildirib turadi. Ammo bu iztirobga soluvchi kim?! Biz eng avvalida oshiq xatosi o‘zining sababidandir deb o‘ylaymiz, ammo she‘r nihoyalanib borarkan, “Men suyib xato qildim, Men kuyib xato qildim” degan jumlalar kitobxonni hushyor torttiradi, oshiq “xato”sini bir qadar anglaganday bo‘ladi, oshiq xato zalvaridan”borar yo‘li yo‘q”ligidan noliydi, hatto “Qani yutilsa tilim”, deb arz qiladi. Xato sabab sevgili yor bilan munosabatlaridan ozurda qalb nihoyat xatoni tuzatish yo‘lini topganday bo‘ladi...Holat ifodasida *suyib*, *kuyib*, *sevgilim* kabi “muhabbat” semasi doirasidagi so‘zlar ishlatilgan, she‘r fabulasi asosida oshiq qahramon hissiyoti barcha tovlanishlari, chigalligi bilan aks ettiriladi. She‘rda muhabbat yo‘lidagi oshiq iztirobi g‘oyat ta’sirli tarzda ifoda etilgan.

Muhabbat mavzusidagi “Ajib tushlar” she‘rining har bir satri muhabbatga limmo-lim qalbning samimiylarini, yurakning hislar buhroni taloto‘midagi inkishofi bilan to‘liq. Lirk qahramon tushlarida yorni qayta- qayta ko‘radi. Buni she‘rdagi *yana* ravishining 3 bora ishlatilgani hamda – *lar* ko‘plik qo‘shimchasining belgi otiga davomlilik ma’nosida qo‘silib kelayotgani ham dalillaydi. Oshiqning tushlari ajibdan ajib, chirmab borayotgan olovli to‘lqinlarda tugab borayotgan nafasi bu olov azobidan yulqinib chiqishni istaydi, ammo:

Alanga chaqnaydi ko‘zimda,

O‘tlar meni tashladi tilib.

Sevgi, sevgi mening bo‘g‘zimda,

Kalimaga kelmaydi tilim.

O‘t ichra yonayotgan, hatto ko‘zlarida alanga akslanayotgan oshiqning holi tang, bo‘g‘zidagi sevgi shunchalarki, hatto tili “kalimaga kelmaydi”, ma’shuqani tushlarida ko‘rganligining o‘zi, tushlarining ajibligidan dalolatligini quyidagi

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

misralarda *shunday* (shu o'rinda tasdiq ma'nosida kelgan) so'zi bilan qayta takrorlaydi:

*Shunday ajib tushlar koribman,*  
Tushlarimda uni ko'rdim men.  
*Shunday ajib tushlar ko'ribman,*  
Huzurida yonib turdim men.

Haqiqiy oshiqning holi ma'lum, ma'shuqa "Huzurida yonib turdim men", Negaki oshiqlik – shartsizlik, oshiqlik – xokisorlikdir. Yor oshiq qalbi haddining shu qadar yuksaaaaklaridaki, jur'ati yetmaydi: tushlari tugab bormoqda-yu hamon bir so'z demoqqa ojiz, bir sadoga-da holi yaroqsiz:

Yana sevgim qoldi yurakda,  
Ul qiyaydi meni beomon.  
Tushlarim ham tugab bormoqda,  
Bir so'z ayta olmasman hamon.

Muhabbat ilohiy tuyg'u, unda poklik mujassam! Xalq ifodasi "Muhabbat tilda emas, dilda bo'ladi"ning isboti bo'lgan ushbu she'rda Rauf Parfi tabiiy va hayotiy holatdan muhabbatning go'zal iqrorini yaratgan. Bu izhorda ilk sevgiga duch kelgan oshiq holatida o'zbekona axloq me'yirlari, xokisorlik, benihoya hurmat, kamtarlik, hayo kabi shaxsning ma'naviy barkamolligini ko'rsatuvchi sifatlar mujassamlashgan.

"Uyg'on, ey malagim" she'ridagi undalmadayoq subyektning ijobiliy pozitsiyasi o'ta yorqin ifodalananadi:

Uyg'on, ey malagim, tur o'rningdan, tur,  
Otashin muzlarda isinaylik, yur.  
Yong'inli daryoda quloch otaylik,  
Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik.

Sevgiga mubtalo qalb –ijodkor qalb: ohoriy kechinmalar ichra sevgan yorini o'zga dunyolarga olib ketmoq istaydi, o'zga dunyolarda oshiqning o'zgacha tasavvurlari - yorini "Otashin muz(?)larda" isinmoqqa , "Yong'inli daryo(?)da quloch otmoqqa chorlaydi. Oshiq dil har bir yosh orzumand kabi olislarda ertasi, kelajagi yorug'ligiga shubha qilmaydi: "Qaragil, eng yorqin bir yulduz yonar, Yorug' bir chaman bu... ketarmiz yana". "Oshiqlar o'z sevgan yorlarini bu dunyo va ahli dunyo g'urbatlaridan uzoqqa - olis-olislarga olib ketishni xohlaydilar. Ushbu she'rda ana shunday chinakam ishq va oshiqlikning mo'jizakor tasviri, berilgan"ki, toza hislari chorlov ifodalarida shaxs ma'naviyatining bir bo'lagini o'zida namoyon eta olgan.

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Rauf Parfi ishqiy ifodalarini o‘z ko‘ngil mulkidan topib ifodalagan. Ishqqa duchor bo‘lganda «Seni topgunga qadar Qanday yashadim men? Nahotki yashadim?» deya hayratlanishi ham, hijrondan qo‘rqib «Ayrilsak, yer o‘qidan chiqib ketar» deb misralarida tuyg‘ularini darjalantirgani ham o‘ziga xos. Ijodiy individualligini ta‘minlovchi yapon xokkulariga monand uchliklaridan birida sevgi sog‘inchi shunchalik kuchliki: «Vujudim yallig‘lanar nafasingdan. Sen shunday yaqinsanki, jon qadar axir, Baribir, seni sog‘inaman, sevgilim» deya nafasi qadar yaqin esa-da yorini sog‘inaveradi. Yor nafasidan vujud yallig‘lanishi uchun oshiqning qanchalar sevgisi kuchli bo‘lishi kerak?! Ba’zi sabablarga ko‘ra yor bilan ajralish oni yetkanda shoirning oshiq obrazи iddaolarsiz, dod-voylarsiz «Kel, vidolashaylik endi sog‘inib», — deydi. Rauf Parfi she’rlaridagi oshiq shunchaki dalli-devona emas, ma’naviy butun shaxs. “Men kuyinib sevaman, netay? Men kuyinib so‘zlayman, xolos”. “Ana shu “kuyinish”ning darjasи shoir ijodiy e’tiqodini ham belgilab beradi. Rauf Parfi she’rlarida Dardning o‘zi detal ham. Uning bitiklarida Dard o‘z holidan o‘zi arz qiladi”<sup>2</sup>.

Rauf Parfining muhabbat mavzusidagi lirkasi orasida o‘tgan asrning 70- 80-yillarida yoshlar orasida juda mashhur bo‘lgan, har bir oshiq qalb torini chertib o‘tgan, xalq yuragidan chuqur joy olgan bir she’r bor: “Laylo!”:

Balki o‘chgan edim yodingdan,  
Shirin xayolingni buzdimmа?  
Laylo, Laylo, sening yoningda  
Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni,  
Shirin xayolingni buzdimmа?

Bu she’rning biror satrida “muhabbat” va konsepti atrofidagi so‘zlar ishlatilmagan, ammo “Qora tunning o‘zga sehri”, “Bechora qalb sening qo‘lingda”, “Ko‘zlariningda mening ko‘zlarim”, “Seni o‘ylab kelmaydir uyqu”, “sening yoningda Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni”, “Yana yo‘llaringda bo‘zladim”, “Tushlarimda topay deb gulro‘, Man uxlarman mangu ehtimol” kabi ifodalar sevgi komponentlarini o‘zida mujassamagan bo‘lib, bunday haroratli satrlar armonli muhabbatdan so‘zlaydi. Oshiq qalblar orasiga nima sababdandir ayrılıq tushdi, vaqt o‘tib tasodif sababdir ma’shuqa “Yana paydo bo‘lding yo‘limda”. Lekin oshiq yarador, qalbidan ketmagan ayrılıq alam va iztiroollarini qayta boshdan kechirishga qurbi yetmaydi, shuning uchun yorini yozg‘irib, ozorlanib so‘roqlaydi: “Nechun paydo bo‘lding yo‘limda?” Barkamol oshiq “sening

<sup>2</sup> Behzod Fazliddin “So‘z saltanati” <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/behzod-fazliddin-soz-saltanati-rauf-parfi-poetik-olamiga-bir-nazar.html>

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

yoningda Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni”deya, ya’ni o‘z idealiga mos ma’shuqa oldida misoli bir yaproq kabi kibrdan holi, o‘ta fidoyi va kamtarin inson qiyofasini jamlaydi. She’rda ko‘ngil sezimlari g‘oyat samimiy va ta’sirli ifoda etilgan. She’r oshiq dillarga shu qadar tushdiki, qo‘sinqqa aylanib yillar, dillar mulkiga aylandi. Hozir ham she’r bilan davrdoshlar yoshlik chog‘larini xotirlaganlarida qo‘sinqni beixtiyor xirgoyi qiladilar. Umuman olganda, Rauf Parfi lirikasida muhabbat tamoyilining asosiy nomlari orasidagi birliklarning ko‘p qismi birikma holidadir, ularning “muhabbat” semasi doirasida shakllanganligini shaxsiy “til” boylik tajribasi orqali bilinadi. Shuningdek, “muhabbat” umumiyligini ifodalovchi birliklar orasida bir yaxlit leksema bilan ifodalanmaydigan, o‘z mohiyatini namoyon qilishi uchun tub va yasama, birikma bilan beriladigan shakllari ko‘p uchrashini “Uyg‘on, ey malagim”, “Laylo”she’rlarida kuzatdik.

Shoir ijodida mavzular hayotning o‘zi qadar rang-barang. Ularda shoirona mushohadaning qamrovi keng: ezgulik va yovuzlik, shafqat va mehrsizlik, inson va tabiat, erk va mahkumlik, muhabbat, Vatan... tilga olinadi, Ayniqsa, vatan manzaralarini chizish, vatan madhiyasini qalb siziqlaridan sizdirib ko‘ngildagiday ayta olish har shoirning istagi. Bu istakka yetmoq uchun ijodkor bisotidagi mehr-muhabbatga yo‘g‘rilgan barcha ifodalarni ko‘tarinki bir pafosda berishga tayyor:

Daryo kabi doimo uyg‘oq,  
Intilishim tog‘ qadar baland,  
Olis yo‘lga otlandim, biroq,  
Mehrim bilan, muhabbat bilan,  
Ey ko‘nglimda tug‘ilgan Vatan.

Shunday! Rauf Parfi – ona yurtga bo‘lgan cheksiz muhabbatning hech kim aytolmagan qirralarini ayta olishning uddasidan chiqa olgan shoir. Daryoday uyg‘oq, tog‘day baland intilish bilan umr otliq olis yo‘lga muhabbat bilan otlangan shoir: “*O‘zbekiston, eng shirin bo‘sса kabi lablarimda urinding. Men olisga otlanar bo‘lsam yuraklarim bo‘lib ko‘rinding. Onajonim, oh, O‘zbekiston!*” – deydi. Ko‘nglini so‘zlarga joylab shu qadar samimiy ifodalaganki, vatanga muhabbatni shoirdan o‘rganish kerakligini his qilib qolasan, kishi.. Qalbdan o‘tmagani so‘zga sizmaydi, albatta! Bir qarashda satrlarda “Muhabbat” konsepti doirasidagi so‘zlarni ko‘rmaymiz, ammo “*shirin bo‘sса kabi lablarga urin*”moq, “*olisda yuraklari bo‘lib ko‘rin*”moq va onaga mengzalmoq – barchasi Vatanga tizginsiz muhabbat tufayli ekanligidandir! She’rning yana bir versiyasida shoir yuqoridagi misralar kontrastini qo‘llaydi: “Oh, Turkiston eng achchiq bo‘sса Kabi lablarimda urinding. Men olisga otlanar

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

bo‘lsam *Kuygan yurak bo‘lib ko‘rinding*”. Adabiyotshunoslar ta’kidlashicha, so‘z Rauf Parfi uchun ilohiy edi, umrini she’riyat va so‘z uchun tikkani edi. Shoир ijodidagi ulug` va muqaddas so`zlardan biri Turkiston edi, ulug` Turkiston Rauf Parfi O`zturk tomonidan o`kinch va sog`inch bilan kuylangan. “*Har kim o‘z qalbiga o‘zidir xoqon, Baribir, men seni sevib sizlarman. Ehtimol nohaqman, ehtimol haqman – Muqaddas Turkiston so‘zin izlarman*”.<sup>3</sup>

Shoir uchun Turkiston-yashash maqsadiga yo‘naltiruvchi kuch – yo‘lchi-yulduz. Davr siyosati hamda ijtimoiy muhit ham shoир ijodida mana shunday hasratlardan yaralgan qalb nolishlarini qog‘ozga to‘kishga majbur qilgan. “Sho‘rolar siyosati baravj bir davrda o‘zbek shoiri O‘zbekistonni Vatanim deb kuylashi, xususan, uning o‘tmishini ulug‘lashi, xalqning orzu-armonlaridan, yo‘qolib borayotgan o‘zligidan gap ochishi mumkin emasdi, bu darhol milliy mahdudlikka yo‘yilar va bu muallif boshiga malomatlar yog‘dirardi. *O‘, ona Turkiston, kuylayman yonib, Dunyo jur‘atini berding qo‘limga. Men endi angladim Turkiy Dunyonи, Mana, men tayyorman endi o‘limga. ... “Ishq so‘zidan kuydi bulbul maskani”, Til bilan kuylanmas ona Vatanim, Men seni kuylamoq istayman faqat*”. Ushbu she’r 1967-yilda bitilgan. Uning zamiridagi shoир dardiga bir zum quloq tutaylik. Qo‘shtirnoqqa olingan birinchi satr Alisher Navoiyga taalluqli ekanligiga shoир izoh bergen. Ya’ni, bulbul o‘z maskani – chamaniga bo‘lgan muhabbatini kuyib-yonib izhor etishi mumkin, lekin men seni hamisha kuylamoq istasam-da, kuylay olmayman (kuylashim mumkin emas), ona – Vatanim, deya nola qiladi shoир”.<sup>4</sup> Bu borada shoир she’rlarining millatning ongi, dunyoqarashiga milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan istiqlol g‘oyalari singdirishdagi rolini alohida ta’kidlash joiz.

Rauf Parfi asarlarining ijtimoiy-falsafiy mag‘zi, ma’naviy qimmati, avvalo, hayotdan, tiriklikdan maqsad, ruhni kamol topdirishdir. Ikkinchidan, ruh erkinligisiz odam o‘zligini namoyon qila bilmaydi; uchinchidan, milliy birliksiz millat o‘z borlig‘ini saqlab qola olmaydi, degan ustuvor g‘oyalardir. Ijodining so‘nggi yillari mahsuli bo‘lgan “TAVBA”she’rida xatti-harakatlarini ayovsiz taftish qilayotgan shaxsning ruhiy holatlari aks ettirilgan bo‘lib, Allohga nido bilan boshlanadi va ishq ham, oshiqlik ham yagona Yaratganga xoslik ekanligi, lirik qahramon o‘zini “Alloh qahrga loyiq qul”, “omonat devor”, “o‘t”, “Sayyod ham sayd”, “kulingman”, deb munojat qiladi:

*Dodimni eshitgil qodir Allohim,  
Ishq sen-sen, oshiq ham sen, men quilingman.* She’r bir umr hurnikka talpinib

<sup>3</sup> 1 Parfi R. Sabr daraxti. – T.: G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 191.

<sup>4</sup> 1.2 .Parfi R. Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1989. – B. 7. 2 www.kh-davron.uz. Mirpo‘lat Mirzo: Shoир (Rauf Parfi haqida), 2009. 28

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

yashagan insonning yaxshi-yomon amallari ajri uchun yagona ishq sohibi - Yaratganga iltijodir. Shoir umrining so‘nggi yillarida haqiqatga yetish uchun ruhan poklanishga intiladi. tasavvufdagi «Yetti vodiy»ni bosib o‘tib haqqa yetmoqlikni, bu yo‘lda mashaqqatlar chekish, hatto o‘lmoq istaydi. Zero, haqiqat yo‘lida o‘lmoq haqqa yetmoqlik-buyuk ishqqa yetishmoqlikdir. “*Allohim bilursen qay sari ketdim... Allohim... Men o‘ldim... Men senga yetdim...*” “She’riyat ham, barcha dinlar kabi odamlar ongi-shuurini, ruhoniyatini poklaydi. Ko‘ngilga Haqni tanish, jamoliga yetishish ishqini joylaydi. Rauf Parfi she’riyati ma’rifiy-ruhoniy tarbiyada ayricha ahamiyat kasb etadi”. <sup>5</sup>Shaxs ma’naviy kamoloti ham ayni mana shu g‘oyalar atrofida kamol topgan.

Rauf Parfi ijodi to‘g‘risida No‘mon Rahimjonov, O.Shodmonov, R.Rahmat, A.Ulug‘ov, M.Xolova, O.Oltinbekov kabi so‘zshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari va maqolalarida fikr yuritilgan, ularda Rauf Parfining poetik mahorati va adabiy-ma’naviy qarashlari chuqur o‘rganilgan. Rauf Parfining yorga, ijodga, vatanga va yaratganga muhabbat mavzusidagi she’riyati yuksak ma’naviyatlari, so‘zi va xatti-harakatlarini uyg‘oq ko‘z bilan, tirik so‘z bilan ziynatlovchi, yuraga mehr-muhabbatga oshno, dunyoning ma’naviy iqlimini tan olgan, haq va haqiqatga yetmoq orzusidagi lirik qahramonlari bilan bugunning xalqi, o‘sib kelayotgan yosh avlodlari uchun musaffo havo vazifasini o‘taydi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Behzod Fazliddin “So‘z saltanati” <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/behzod-fazliddin-soz-saltanati-rauf-parfi-poetik-olamiga-bir-nazar.html>
2. Mengliyev B.R. Til bag‘ridagi ma’naviyat: lingvoma’naviyatshunoslik va uning istiqbollari haqida // “Ma’rifat” gazetasi, 2018 yil, 25- aprel, 33-son.
3. Parfi R. Sabr daraxti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 191.
4. Parfi R. Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1989. – B. 7. 2 [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz). Mirpo‘lat Mirzo: Shoir (Rauf Parfi haqida), 2009. 28
5. Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. –T.: Fan, 1979. - B. 157. 38
6. <https://tafakkur.net/xato-qildim-sevgilim/rauf-parfi-ozturk.uz>
7. <https://tafakkur.net/uygon-ey-malagim/rauf-parfi-ozturk>

<sup>5</sup> 1 Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. –T.: Fan, 1979. - B. 157. 38